**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XAKIMDJANOVA SURAYYO XABIBULLAYEVNA

ENERGETIKA SANOATI KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ misolida)

08.00.03–Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2026

UDK: 338:658

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD) философии по экономическим наукам

Content of the Doctoral (PhD) dissertation abstract

Xakimdjanova Surayyo Xabibullayevna
Energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

Хакимджанова Сурайё Хабибуллаевна
Совершенствование механизмов устойчивого развития предприятий энергетической отрасли ……..…… 25

Khakimdjanova Surayyo Khabibullaevna
Improvement of sustainable development mechanisms for enterprises in the energy sector ……. 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….....…… 59

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XAKIMDJANOVA SURAYYO XABIBULLAYEVNA

ENERGETIKA SANOATI KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ misolida)

08.00.03–Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2026

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2026.2.PhD/Iqt.6780 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tdtu.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Allayeva Gulchexra Jalgasovna** Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li** Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
	Adilova Go‘zal Abdazovna Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent arxitekura-qurilish universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.02.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____”_____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100097, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 207-14-64. e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100097, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 207-14-70. e-mail: tstu_ info@tdtu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____”_____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____”_____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A. Ikramov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.I. Begmullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

M.A. Tillyaxodjaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda elektr energiyasiga talabning jadal ortishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining kengayishi, energiya xavfsizligi, tarmoq infratuzilmasining ishonchliligi va energiya samaradorligini ta’minlash masalalari energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini strategik ahamiyatga ega yo‘nalishga aylantirmoqda. Xalqaro energetika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda global elektr energiyasiga talab qariyb 3 foizga yoki 800 TWh ga oshgan, 2026-2030-yillarda esa uning yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati 3,6 foizni tashkil etib, 2030-yilda jahon elektr energiyasi iste’moli 33600 TWh ga yetishi prognoz qilinmoqda[1]. Elektr energiyasiga talabning bunday sur’atlarda ortishi elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, investitsiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tarmoqqa integratsiyalash orqali energetika korxonalarining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash zaruratini kuchaytirmoqda.

Jahonda energetika korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan tadqiqotlarda energiya samaradorligini oshirish, elektr tarmoqlarini modernizatsiya va raqamlashtirish, texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tarmoqqa integratsiyalash, investitsiya faoliyatini takomillashtirish hamda iqtisodiy, ekologik va texnologik ko‘rsatkichlarni kompleks baholash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq elektr energiya korxonalari darajasida operatsion samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va “yashil” energetika ko‘rsatkichlarini yagona tizimda baholash, ularni investitsiya, modernizatsiya va boshqaruv qarorlari bilan bog‘lash hamda korxonaning o‘rta muddatli barqaror rivojlanishini prognozlashning kompleks ilmiy-uslubiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda. Mazkur yondashuv dissertatsiyada belgilangan integrallashgan baholash modeli, SISI indeksi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm va prognozlash yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liq.

Yangi O‘zbekistonda elektr energetikasi tizimini isloh qilish, generatsiya quvvatlarini kengaytirish, magistral elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish hamda “yashil” energetikani rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Energetika vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda iste’molchilarga 77,1 mlrd kVt·soat elektr energiyasi yetkazib berilib, 2024-yilga nisbatan 14 foiz o‘sishga erishilgan, shuningdek 787 km magistral elektr tarmog‘i mukammal ta’mirlangan[2]. 2026-yilga kelib mamlakatdagi elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati 25,8 ming MVtga yetib, shundan 8 ming MVt yoki 31 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini esa 90 mlrd

[1] International Energy Agency. *Global Energy Review 2026*; *Electricity 2026*. URL:https://www.iea.org/reports/global-energy-review-2026/electricity-demand

[2] O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. *2025-yilda yoqilg‘i-energetika sohasida amalga oshirilgan ishlar*, 2026-yil 2-yanvar. Manba: https://gov.uz/oz/minenergy/news/view/115906

kVt·soatga yetkazish rejalashtirilgan[3]. Biroq energetika korxonalarining barqaror rivojlanishini kompleks baholash, investitsiya va modernizatsiya qarorlarini texnologik yo‘qotishlar hamda moliyaviy natijalar bilan uyg‘unlashtirish, barqarorlik darajasini integral ko‘rsatkichlar orqali aniqlash va istiqboldagi rivojlanish parametrlarini prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur holat “O‘zbekiston MET” AJ misolida elektr energiya korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasida elektr energetikasi tizimini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, infratuzilmani barqaror rivojlantirish, tarmoqdagi texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish hamda “yashil” energetikaga o‘tishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni, 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-939-son hamda “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-940-son qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-yanvardagi “Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-28-son qarori, 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-fevraldagi “Elektr energetikasi sohasidagi faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 91-son qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiyasi tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Energetika tizimida barqaror rivojlanish, energiya xavfsizligi va “yashil” transformatsiya masalalarining nazariy asoslari barqaror rivojlanish, ekologik iqtisodiyot va tizimli yondashuvlar doirasida shakllangan. G. H. Brundtland, J. Elkington, H. E. Daly, D. H. Meadows, R. E. Freeman va P. Hawkenning ilmiy ishlari energetika korxonalarini iqtisodiy, ekologik

[3] Energetika sohasidagi loyihalarni jadallashtirish chora-tadbirlari muhokama qilindi (2026-yil 23-fevral). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Manba: https://www.president.uz/oz/lists/view/8963

va ijtimoiy mezonlar uyg‘unligida rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.[4]

MDH ilmiy maktabi vakillaridan N. N. Moiseev, V. I. Danilov-Danilyan, K. S. Losev, A. D. Ursul, V. A. Koptyug barqaror rivojlanishning nazariy-metodologik asoslari, ekologik xavfsizlik, milliy strategiyalar va sivilizatsiya darajasidagi barqarorlik muammolarini chuqur tahlil qilganlar.[5]

O‘zbekiston olimlaridan esa B. T. Salixov, A. Vahobov, K. S. Sharifxodjayev, N. Jo‘rayev, S. G‘ulomov G.J.Allayeva, A.A.Matchanov va boshqa tadqiqotchilar barqaror rivojlanishni modernizatsiya, institutsional islohotlar, innovatsion iqtisodiyot va ijtimoiy farovonlik bilan uzviy bog‘liq holda talqin etib, milliy iqtisodiyot sharoitiga mos nazariy yondashuvlarni ishlab chiqqanlar.[6]

Biroq elektr energiya tarmog‘i korxonalari darajasida barqarorlikni baholashga mo‘ljallangan, operatsion samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va “yashil” energetika bloklarini bir tizimga integratsiya qiluvchi maxsus indeks va iqtisodiy mexanizmlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. “O‘zbekiston MET” AJ misolida investitsiyalar, texnologik yo‘qotishlar, tarif siyosati va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks aks ettiruvchi integrallashgan barqarorlik modeli bo‘yicha ilmiy izlanishlar kam uchraydi. Shu bois mazkur tadqiqot mavjud nazariy-amaliy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasida nazarda tutilgan “Fan, ta’lim va ishlab chiqarishning innovatsion hamkorligi tizimida intellektual kapitalning shakllanishi va qo‘llanilishi” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. “O‘zbekiston MET” AJ misolida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini baholash, boshqarish va prognozlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda ular asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

[4] Brundtland, G. H. Our Common Future / G. H. Brundtland; World Commission on Environment and Development. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 383 p., Elkington, J. Enter the Triple Bottom Line // The Triple Bottom– London: Earthscan Publications Ltd., 2004. – P. 1–16, Daly, H. E. Toward Some Operational Principles of Sustainable Development // Ecological Economics. – 1990. – Vol. 2, № 1. – P. 1–6., Meadows, D. H. Thinking in Systems: A Primer. – White River Junction, VT: Chelsea Green Publishing, 2008. – 218, Freeman, R. E.; Harrison, J. S.; Wicks, A. C.; Parmar, B. L.; De Colle, S. Stakeholder Theory: The State of the Art. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 343 p. Hawken, P. The Ecology of Commerce: A Declaration of Sustainability. – Revised ed. – New York : HarperBusiness, 2010. – 250 p.

[5]Моисеев, Н. Н. Судьба цивилизации. Путь Разума. – Москва : Языки русской культуры, 1998. – 224 с., Данилов-Данильян, В. И. Устойчивое развитие: теоретико-методологические основы. – Москва : Экономика, 2003. – 295 с., Лосев, К. С. Экологическая безопасность и устойчивое развитие. – Москва : Наука, 2000. – 312 с., Урсул, А. Д. Стратегия устойчивого развития. – Москва : Изд-во РАГС, 2000. – 287 с., Коптюг, В. А. Устойчивое развитие цивилизации и место в ней России: проблемы формирования национальной стратегии. – Новосибирск : СО РАН, 1996. – 48 с

[6]Salikhov, B. T. Barqaror rivojlanish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2016. – 280 p., Vahobov, A.; Yo‘ldashev, Sh.; Xojimatov, R. Milliy iqtisodiyot. – Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2019. – 512 p., Sharifxodjayev, K. S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2015. – 320 p., Jo‘rayev, N. Global muammolar va barqaror taraqqiyot. – Toshkent: Fan, 2008. – 256 p. Allayeva G.J. Yoqilg‘i energetika kompleksi korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2018. Matchanov A.A. Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2023.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini baholash ko'rsatkichlari, mezonlari va tamoyillarini o ‘rganib chiqish;

energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajribalarni o‘rgangan xolda ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish;

«O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» AJning iqtisodiy faoliyati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish hamda barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

energetika sanoati korxonalari barqaror rivojlanishini baholashning to‘rt blokli integrallashgan konseptual modelini ishlab chiqish va model asosida SISI (Tizimli integrallashgan barqarorlik indeksi)ni hisoblash metodini ishlab chiqish;

“O‘zbekiston MET” AJ misolida barqaror rivojlanishning alohida bloklari bo‘yicha subindekslar hamda SISI ni 2019–2025-yillar ma’lumotlari asosida baholash;

energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini SISI indeksi asosida natijalarni baholovchi yetti bosqichli tashkiliy iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish;

Xoltning chiziqli silliqlash modeli va zanjirli o‘sish indekslari asosida “O‘zbekiston MET” AJning 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan moliyaviy natijalari hamda barqarorlik ko‘rsatkichlari dinamikasini prognozlash.

Tadqiqotning obyekti. “O‘zbekiston MET” AJning elektr energiya bilan bog‘liq ishlab chiqarish, iqtisodiy faoliyati jarayonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. Energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini baholash, boshqarish va prognozlash jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hamda ularni takomillashtirish mexanizmlari majmuidan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tizimli yondashuv, tahlil va sintez, qiyosiy usullaridan foydalanildi. “O‘zbekiston MET” AJning barqaror rivojlanishini baholashda “minimum-maksimum” normallashtirish asosida SISI indeksi hisoblandi, 2026–2030-yillardagi rivojlanish ko‘rsatkichlarini prognozlashda esa zanjirli o‘sish indekslari va Xoltning chiziqli silliqlash modeli qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elektr energiya korxonalarining barqaror rivojlanishini kompleks baholash maqsadida operatsion samaradorlik, iqtisodiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va “yashil” energetika yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘liq yagona tizimga birlashtiruvchi to‘rt blokli integrallashgan konseptual model ishlab chiqilgan;

elektr energiya korxonalarining barqaror rivojlanish darajasini miqdoriy baholash uchun operatsion, moliyaviy-iqtisodiy, innovatsion va “yashil” energetika bloklari ko‘rsatkichlarini yagona baholash tizimiga keltirish hamda ularning o‘zaro mutanosibligini hisobga olishga asoslangan tizimli integrallashgan barqarorlik indeksi (SISI)ni hisoblash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

elektr energiya korxonalari barqaror rivojlanishini boshqarishda SISI indeksi bo‘yicha olingan baholash natijalarini investitsiya portfelini shakllantirish,

texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish, tarif siyosatini takomillashtirish, operatsion samaradorlikni oshirish va modernizatsiya tadbirlarini ustuvorlashtirish bilan o‘zaro bog‘lovchi yetti bosqichli tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqilgan;

Xoltning chiziqli tekislash modeli va zanjirli o‘sish ko‘rsatkichlari yordamida “O‘zbekiston MET” AJning 2026-2030-yillarda kutilayotgan sof tushumi va integrallashgan barqarorlik indeksining o‘zgarish dinamikasini prognozlash ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“O‘zbekiston MET” AJ uchun operatsion samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va “yashil” energetika bloklarini qamrab oluvchi SISI integral indeksini hisoblash usuli ishlab chiqildi hamda uni korxonaning hisobot va monitoring tizimiga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlandi.

Subindekslar va integral indeks asosida korxona faoliyatini baholash uchun amaliy qiymatlar diapazoni, kritik, qoniqarli va optimal holat mezonlari hamda boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlovchi indikatorlar xaritasi shakllantirildi.

Investitsiyalar, texnologik yo‘qotishlar, tarif siyosati va operatsion samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sinovdan o‘tkazilib, yo‘qotishlarni kamaytirish, tariflarni optimallashtirish va investitsion loyihalarni ustuvorlashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xoltning chiziqli tekislash modeli asosida 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan sof tushum va SISI integral indeksining prognozlari hisoblanib, korxonaning o‘rta muddatli strategik rivojlanish ssenariylari taklif etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuv va usullarning tadqiqot maqsadlariga muvofiqligi, foydalanilgan ma’lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi hamda “O‘zbekiston MET” AJning rasmiy hisobotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning “O‘zbekiston MET” AJ amaliyotida sinov tariqasida joriy etilgani olingan natijalarning amaliy ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini kompleks baholashga xizmat qiluvchi SISI integral indeksi, subindekslar tizimi hamda prognozlash metodikasining ishlab chiqilgani bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv operatsion, moliyaviy, innovatsion va “yashil” energetika ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa taklif etilgan usul va mexanizmlardan “O‘zbekiston MET” AJ hamda boshqa elektr energiya korxonalarida texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish, investitsiya loyihalarini ustuvorlashtirish, tarif siyosatini takomillashtirish va strategik rejalashtirish samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi Energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini kompleks baholash maqsadida operatsion samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va “yashil” energetika yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘liq yagona tizimga birlashtiruvchi to‘rt blokli integrallashgan konseptual modelni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha taklif “O‘zbekiston MET” AJ faoliyatiga joriy etilgan *(“O‘zbekiston MET” AJning 2026-yil 16-iyuldagi 01-05-41/6507-son ma’lumotnomasi*). Taklifning joriy etilishi korxonaning operatsion, moliyaviy, innovatsion va “yashil” energetika yo‘nalishlaridagi holatini yagona tizimda baholash, zaif bo‘g‘inlarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish imkonini yaratgan;

energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish darajasini miqdoriy baholash uchun operatsion, moliyaviy, innovatsion va “yashil” energetika bloklari ko‘rsatkichlarini yagona baholash tizimiga keltirish hamda ularning o‘zaro mutanosibligini hisobga olishga asoslangan tizimli integrallashgan barqarorlik indeksini (SISI) hisoblash usuli “O‘zbekiston MET” AJ faoliyatiga joriy etilgan *(“O‘zbekiston MET” AJning 2026-yil 16-iyuldagi 01-05-41/6507-son ma’lumotnomasi*). Natijada korxonaning operatsion samaradorligi o‘rtacha 1,2–1,5 foizga o‘sishiga erishilgan;

SISI integral indeksiga tayangan, barqaror rivojlanishni boshqarishga xizmat qiluvchi yetti bosqichli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini qo‘llash bo‘yicha taklif “O‘zbekiston MET” AJ faoliyatiga joriy etilgan *(“O‘zbekiston MET” AJning 2026-yil 16-iyuldagi 01-05-41/6507-son ma’lumotnomasi*). Ushbu taklifning amalga oshirilishi tariqasida, mexanizm korxonaning barqarorlik holatini baholash natijalaridan boshqaruv qarorlarini asoslashda foydalanishga xizmat qiladi.

Xoltning chiziqli silliqlash modeli va zanjirli o‘sish indekslari asosida “O‘zbekiston MET” AJning 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan sof tushumi dinamikasini prognozlash metodikasini qo‘llash bo‘yicha taklif “O‘zbekiston MET” AJ faoliyatiga joriy etilgan *(“O‘zbekiston MET” AJning 2026-yil 16-iyuldagi 01-05-41/6507-son ma’lumotnomasi)*. Hisob-kitoblarga ko‘ra, korxona sof tushumining 2030-yilda 11,74 mlrd so‘mga yetishi, yillik o‘sish sur’atining esa o‘rtacha 4,11 foizni tashkil etishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, dissertatsiya hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, energetika korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashning zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Energetika korxonalari oldida turgan muammolar, global va milliy rivojlanish tendensiyalari hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish zarurati tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan bo‘lib, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, muallifning ilmiy ishlari hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida barqaror rivojlanish konsepsiyasining mazmun-mohiyati, uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy tarkibiy qismlari tizimli ravishda tahlil qilingan bo‘lib xalqaro, MDH mamlakatlari va O‘zbekiston olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar qiyosiy o‘rganildi va energetika tarmog‘ida barqaror rivojlanishni ta’minlashning konseptual asoslari umumlashtirildi.

Bobda energetika tizimining barqaror rivojlanishi iqlim o‘zgarishi, resurslar cheklanganligi va energiyaga bo‘lgan talabning ortishi sharoitida energiyadan samarali, ishonchli va uzoq muddatli foydalanishni talab qilishi ilmiy asoslangan. An’anaviy yoqilg‘ilar ustunligi, ishlab chiqarish quvvatlarining eskirganligi, texnologik modernizatsiya sur’atlarining pastligi hamda “yashil” texnologiyalarga investitsiyalar yetishmasligi energetika korxonalarining barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida baholandi. Natijada, korxonalar faoliyatida iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni ham qamrab oluvchi boshqaruv yondashuvlarini joriy etish zarurligi asoslab berildi, hamda “barqarorlik”, “barqaror rivojlanish”, “energiya xavfsizligi” va “yashil transformatsiya” tushunchalari qiyosiy tahlil qilinib, energetika sohasi uchun muhim nazariy yondashuvlar tizimlashtirilgan. Energetika korxonalarining barqaror rivojlanishini baholashning nazariy asoslari yoritilib, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik usullar va integral indekslardan foydalanish imkoniyatlari asoslandi.

Birinchi bob yakunida dissertatsiyaning keyingi boblarida taklif etilgan to‘rt blokli baholash modeli, SISI integral barqarorlik indeksi hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan nazariy va uslubiy asoslar shakllantirilgani ko‘rsatilib, birinchi bob butun tadqiqotning konseptual poydevorini tashkil etishi ta’kidlangan. Energetika korxonalarining barqaror rivojlanishini kompleks baholashning konseptual modeli ishlab chiqilib, uning asosiy tamoyillari va tarkibiy elementlari tizimlashtirilgan. Mazkur yondashuv keyingi boblarda

iqtisodiy tahlillarni amalga oshirish, integral baholash tizimini ishlab chiqish hamda amaliy taklif va tavsiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

1-jadval

“Barqarorlik” tushunchasining olimlar tomonidan berilgan ta’riflari[7]

Mualliflar	**Ta’rifning Mohiyati**
Brundtland komissiyasi[8]	"Hozirgi avlodning ehtiyojlarini kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga putur yetkazmasdan qondirish."
John Elkington[9]	Barqarorlik iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash hamda ularning uzviy uyg‘unligini ta’minlash jarayonidir.
Herman Daly[10]	Qayta tiklanmaydigan resurslar iste’moli ularning qayta tiklanadigan resurslar bilan almashtirilish sur’atidan oshmasligi kerak. Shuningdek, ifloslanish darajasi atrof-muhitning uni o‘zlashtirish va zararsizlantirish qobiliyatidan oshmasligi lozim.
Donella Meadows[11]	Barqarorlik bu bir holat emas, balki tizimning tashqi va ichki og‘ishlarga qaramay, o‘z tuzilishi va funktsiyasini saqlab qolish qobiliyatidir.
N. N. Moiseev[12]	Barqaror rivojlanish–bu biosfera va insoniyat sivilizatsiyasining koevolyutsiyasi bo‘lib, inson faoliyati tabiiy tizimlarning barqaror ishlash chegaralarini buzmasligi lozim.
V. I. Danilov-Danilyan[13]	Barqaror rivojlanish–iqtisodiy faoliyatning ekologik cheklovlar doirasida amalga oshirilishi hamda tabiiy kapitalni saqlash asosida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning uzoq muddatli muvozanatini ta’minlashdir.
K. S. Losev [14]	Barqarorlik–bu antropogen yuklamalar biosferaning assimilyatsiya salohiyatidan oshmaydigan va tabiiy muvozanat saqlanadigan rivojlanish modelidir.
B. T. Salikhov[15]	Barqaror rivojlanish–iqtisodiy o‘sish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi tizimli muvozanatni ta’minlashga qaratilgan kompleks islohotlar va institutsional o‘zgarishlar jarayonidir.
A. Vahobov[16]	Barqaror rivojlanish–milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan taraqqiyot modelidir.
K. S. Sharifxodjayev[17]	Barqarorlik–modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarida iqtisodiy samaradorlikni ekologik cheklovlar asosida boshqarish hamda uzoq muddatli institutsional barqarorlikni saqlashdir.

1-jadvalda keltirilgan ta’riflar barqarorlik konsepsiyasining xalqaro, MDH va O‘zbekiston ilmiy maktablaridagi yondashuvlarini umumlashtiradi. Ular barqaror

[7] O‘rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

8Brundtland, G. H. Our Common Future / G. H. Brundtland; World Commission on Environment and Development. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 383 p.

[9] Elkington, J. Enter the Triple Bottom Line // The Triple Bottom Line: Does It All Add Up? – London: Earthscan Publications Ltd., 2004. – P. 1–16.

[10] Daly, H. E. Toward Some Operational Principles of Sustainable Development // Ecological Economics. – 1990. – Vol. 2, № 1. – P. 1–6.

[11] Meadows, D. H. Thinking in Systems: A Primer. – White River Junction, VT: Chelsea Green Publishing, 2008. – 218 p.

[12] Моисеев, Н. Н. Судьба цивилизации. Путь Разума. – Москва: Языки русской культуры, 1998. – 224 с.

[13] Данилов-Данильян, В. И. Устойчивое развитие: теоретико-методологические основы. – Москва: Экономика, 2003. – 295 с.

[14] Лосев, К. С. Экологическая безопасность и устойчивое развитие. – Москва: Наука, 2000. – 312 с.

[15] Salikhov, B. T. Barqaror rivojlanish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016. – 280 p.

[16] Vahobov, A.; Yo‘ldashev, Sh.; Xojimatov, R. Milliy iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 512 p.

[17] Sharifxodjayev, K. S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2015. – 320 p.

rivojlanishni iqtisodiy samaradorlik, ekologik cheklovlar va ijtimoiy adolat muvozanati sifatida talqin etadi, milliy olimlar esa bu tushunchani modernizatsiya, raqobatbardoshlik va institutsional islohotlar bilan bog ‘laydi. Bizning fikrimizcha, barqarorlik – bu iqtisodiyot, jamiyat va ekologiyaning bir-biriga bog‘liq holda, cheklangan resurslar sharoitida barqaror rivojlanishi. U hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirib, kelajak avlod farovonligini ham ta’minlashga qaratilgan uzviy rivojlanish modelidir.


Ishimizni olib borish jarayonida 2020–2025-yillarda Xitoy, AQSH, Germaniya, Daniya va O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilindi. Natijalar quyidagi 2-jadvalda umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining qiyosiy ko‘rinishda aks ettirilgan.

2-jadval

2020–2025-yillarda Xitoy, AQSH, Germaniya, Daniya va O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining qiyosiy tahlili (mlrd kVt-soat)[18]

Davlat	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Xitoy	7779.1	8534.3	8848.7	9456.5	10086.9	10583.4
AQSh	4043.2	4153.6	4286.9	4253.9	4391.0	4519.8
Germaniya	566.8	578.8	566.9	506.7	496.0	500.5
Daniya	28.6	32.9	35.2	33.9	35.1	33.3
O‘zbekiston	66.5	71.4	75.1	76.8	81.5	86.7

2-jadval tahliliga ko‘ra 2020–2025-yillarda Xitoy va AQSh elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha yetakchi ekanini ko‘rsatadi. Xitoyda ishlab chiqarish 7 779,1 TWh dan 10 583,4 TWh gacha, AQShda esa 4 043,2 TWh dan 4 519,8 TWh gacha oshgan. O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish 66,5 TWh dan 86,7 TWh gacha, ya’ni qariyb 30% ga ko‘paygan bo‘lib, bu yangi quvvatlar, modernizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bilan izohlanadi. Germaniyada ishlab chiqarish 566,8 TWh dan 500,5 TWh gacha kamaygan, Daniyada esa 2025-yilda 33,3 TWh ni tashkil etgan. Ushbu davlatlarda asosiy e’tibor ishlab chiqarish hajmini oshirishdan ko‘ra energetika tizimini “yashil” transformatsiya qilishga qaratilgan.



1-rasm. O‘zbekiston elektr energetikasi tizimining funksional tuzilmasi: generatsiya, savdo, uzatish va taqsimlash bosqichlari.[19]

“O‘zbekiston MET” AJ mamlakatdagi magistral va hududlararo elektr uzatish tarmoqlarini boshqaruvchi asosiy tizim operatoridir. Uning vazifasi elektr


[18] jadval Our World in Data’ning owid-energy-data.csv bazasidagi electricity_generation ustuni (TWh) asosida tuzilgan; 1 TWh ≈ 1 mlrd kVt/soat

[19] Manba: muallif ishlanmasi.

energiyasini ishlab chiqaruvchi stansiyalardan hududiy taqsimlash tarmoqlariga ishonchli uzatish va uzatish infratuzilmasini modernizatsiya qilishdan iborat. 1-rasmda elektr energetikasi tizimining generatsiya, savdo, uzatish va taqsimlash bosqichlari keltirilgan.

1-rasmda ko‘rsatilganidek, elektr energiyasi avval davlat va xususiy stansiyalarda ishlab chiqarilib, ulgurji savdo “Uzenergosotish” AJ orqali amalga oshiriladi. Keyin elektr energiyasi “O‘zbekiston MET” AJ tomonidan 35-110-220-500 kV magistral tarmoqlar orqali uzatiladi va yakunda "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ 0,4-6-10 kV taqsimlash tarmoqlari orqali iste’molchilarga yetkazadi; bu zanjir elektr energetika tizimidagi asosiy funksional bo‘g‘inlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi.

Dissertatsiyaning “Energetika sanoati korxonalarining joriy holatini tahlil qilish va baholash: muammolar va istiqbollar” nomli ikkinchi bobida mamlakat elektr energetika tizimining institutsional tuzilmasi, islohotlar yo‘nalishlari va “O‘zbekiston MET” AJ tarmoqdagi o‘rni tahlil qilingan. Bobda “O‘zbekiston MET” AJning 2019-2025 yillardagi moliyaviy natijalari, balans ko‘rsatkichlari, texnologik yo‘qotishlar va investitsiya faolligi bo‘yicha empirik tahlillar asosida operatsion, moliyaviy, innovatsion va ekologik bloklar kesimida barqarorlik subindekslari orqali zaif va kuchli nuqtalar aniqlanib, ilmiy jihatdan umumlashtirilgan.




2-rasm. “O‘zbekiston MET” AJ moliyaviy tuzilmasi (2019-2025 yy.)[20]

2- rasmda 2019-2025 yillarda korxonaning jami aktivlari barqaror o‘sgan (6,67 mlrd so‘mdan 20,57 mlrd so‘mgacha), biroq bu o‘sish asosan majburiyatlarning tezroq ko‘payishi hisobiga ta’minlangan. 2023-yilda majburiyatlar (20,80 mlrd so‘m) aktivlardan oshib ketishi natijasida jami kapital manfiy qiymatga (−2,65 mlrd so‘m) o‘tgan, bu moliyaviy holatning tanqidiy darajaga yetganini ko‘rsatadi. 2024-yildagi restrukturizatsiya natijasida majburiyatlar qisqarib, kapital yana ijobiyga (5,37 mlrd so‘m) qaytgan, ammo bu daraja 2021-2022-yillarnikidan past bo‘lib, barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Quyidagi 3-rasmda “O‘zbekiston MET” AJning 2019- 2025 yillar mobaynidagi moliyaviy natijalarini ko’rib tahlil qilishimiz mumkin.

[20]Korxona moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



3-rasm. “O‘zbekiston MET” AJ moliyaviy natijalari (2019- 2025 yillar)[21]

3-rasm 2019–2025 yillar davomida korxonaning sof tushumi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etib, 6,38 mlrd so‘mdan 9,70 mlrd so‘mgacha oshgan. Biroq sof tushum bilan bir qatorda tannarx ham deyarli proporsional sur’atlarda ko‘paygani sababli yalpi foyda hajmi cheklangan bo‘lib qolgan.

3-jadval

“O‘zbekiston MET” AJning asosiy investitsiya loyihalari[22]

№	Loyiha nomi	Amalga oshirish muddati	Loyiha qiymati (mln dollar)	Asosiy ko‘rsatkichlar	Kutilayotgan natija
1	500 kV “Halqa” tizimini qurish	2021–2025 yy.	149,3	500 kV elektr uzatish tarmoqlari va podstansiyalar	Tizim barqarorligi oshadi, yuklama muvozanatlanadi
2	Magistral elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish	2022–2026 yy.	167,9	355,75 km tarmoq, 420 MVA quvvat	Yo‘qotishlar kamayadi, samaradorlik oshadi
3	Podstansiyalarni modernizatsiya qilish (Faza II)	2021–2026 yy.	174,8	22 ta podstansiya, 1106 MVA quvvat	Elektr ta’minoti ishonchliligi oshadi
4	SCADA tizimini joriy etish	2020–2027 yy.	125,0	Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi	Real vaqt monitoring, boshqaruv samaradorligi oshadi
5	Istiqbolli investitsiya loyihalari (20 ta)	2025 y.dan keyin	982,4	2232 km tarmoq, 3606 MVA quvvat	Uzoq muddatli rivojlanish ta’minlanadi
6	2025 yil investitsiya dasturi (8 ta loyiha)	2025 yy.	59,0	500 MVA yangi PS, 617 MVA qo‘shimcha quvvat, 47 km tarmoq	Qisqa muddatli quvvat oshadi


[21] Korxona moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

[22] Korxonaning investitsiya loyihalari bo‘yicha ichki statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Davr xarajatlarining yuqori darajasi natijasida sof foyda koʻrsatkichlari butun davr mobaynida juda past, ayrim yillarda esa deyarli nolga yaqin qiymatlarda shakllangan. Bu holat korxonada daromadlar oʻsishiga qaramay, moliyaviy samaradorlik va rentabellik darajasining yetarli emasligini, xarajatlarni optimallashtirish hamda boshqaruv va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish boʻyicha institutsional chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini koʻrsatadi. Shu maqsadda 2025 yildan boshlab amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilishi kutilmoqda. 3-jadvalda “Oʻzbekiston MET” AJning asosiy investitsiya loyihalari keltirilgan.

3-jadvalda “Oʻzbekiston MET” AJning infratuzilmasini rivojlantirish, podstansiyalarni modernizatsiya qilish va boshqaruv tizimlarini raqamlashtirishga yoʻnaltirilgan investitsiya loyihalari aks ettirilgan. Tadqiqotda mavjud yondashuvlarning texnologik yoʻqotishlar va tashqi kreditlarga bogʻliqlikni yetarli hisobga olmasligi aniqlanib, ushbu cheklovlarni bartaraf etish maqsadida operatsion samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va yashil energetika bloklaridan iborat toʻrt blokli integrallashgan baholash modeli taklif etildi.

4-rasmda energetika korxonalari barqaror rivojlanishini baholashga moʻljallangan toʻrt blokli integrallashgan model tasvirlanib, unda barqarorlik operatsion samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va yashil energetika yoʻnalishlari boʻyicha kompleks ifodalanadi.



4-rasm. Elektr uzatish korxonalari barqaror rivojlanishini baholashning toʻrt blokli konseptual modeli[23]

[23] Muallif ishlanmasi.

Modelning ustun jihati shundaki, u umumiy barqarorlik konsepsiyasini energetika tarmoqlarining texnologik va institutsional xususiyatlari bilan bog‘lab, baholashni amaliy ko‘rsatkichlar tizimi asosida olib borish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» AJ barqaror rivojlanishini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari va amaliy natijalari deb nomlanuvchi uchinchi bobida avvalo, energetika korxonalari uchun operatsion samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va “yashil” energetika komponentlarini birlashtiruvchi integrallashgan barqarorlik indeksi ishlab chiqildi. Shunga asoslanib, “O‘zbekiston MET” AJ barqaror rivojlanishini ta’minlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etildi. So‘ngra Xoltning chiziqli silliqlash modeli va zanjirli o‘sish indekslari yordamida “O‘zbekiston MET” AJning sof tushumi 2026–2030 yillarga prognoz qilindi.

Ikkinchi ilmiy yangiligimiz SISI (Tizimli Integrallashgan Barqarorlik Indeksi) indeksini ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqdi. Mavjud usullar energiya tarmoqlarining texnik, moliyaviy, innovatsion, yashil energetika komponentlarini to‘liq qamrab olmasligi va aynan elektr energiya bilan shug’illanuvchi korxonalarning boshqaruv qarorlariga bevosita bog‘lanadigan, o‘lchash imkoniyati yuqori bo‘lgan integral ko‘rsatkichga ehtiyoj bilan izohlandi. Ushbu yondashuv tarmoq monopoliyasi sharoitida faoliyat yurituvchi energetika korxonalari barqarorligini tizimli va miqdoriy baholash uchun ilmiy asos yaratadi.

SISI integral indeksi to‘rtta subindeksning geometrik o‘rtachasi sifatida hisoblanib, bunda biror subindeks nol bo‘lsa, umumiy indeks ham nolga teng bo‘ladi, ya’ni “zanjir ustuvor” tamoyili ta’minlanadi. Har bir subindeks minimum–maksimum normalizatsiya orqali 0–1 oraliqqa keltiriladi, bu esa turli o‘lchov birliklaridagi ko‘rsatkichlarni yagona shkalada taqqoslash imkonini beradi. Quyida ushbu normalizatsiya va SISI integral indeks formulalari keltirilgan.

$$In = (X – Xmin) / (Xmax – Xmin)$$

Salbiy yo'nalish uchun (ko'rsatkich qanchalik past bo‘lsa, shunchalik yaxshi):

$$In = (Xmax – X) / (Xmax – Xmin)$$

Integral SISI indeksi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$SISI = (It \times Ie \times Ii \times Iec)^{(1/4)}$$

Bu yerda:

It–operatsion samaradorlik indeksi (texnologik yo‘qotishlar bo‘yicha);

Ie–iqtisodiy barqarorlik indeksi (kapital ulush bo‘yicha);

Ii–innovatsion rivojlanish indeksi (investitsiya ulushi bo‘yicha);

Iec–yashil energetika indeksi (yashil energiya tarmoqda foydalanilayotgan hajmi).

4-jadvalda SISI integral indeksining talqin oralig‘i, unga mos barqarorlik darajalari va boshqaruv qarorlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar keltirilgan.

4-jadval

SISI integral indeksining qiymatlar oralig‘i[24]

SISI oralig‘i	Daraja	Tafsif	Tavsiya
0,00–0,25	Juda past	Tizimli inqiroz xavfi	Zudlik bilan tuzatish choralari ko‘rish
0,25–0,50	Past	Muhim zaifliklar mavjud	Investitsiya va boshqaruv choralarini kuchaytirish
0,50–0,75	O‘rta	Nisbatan muvozanatli rivojlanish	Zaif tomonlarni mustahkamlash
0,75–1,00	Yuqori	Barqaror rivojlanish holati	Mavjud ijobiy tendensiyani davom ettirish

5-jadvalda “O‘zbekiston MET” AJ uchun 2019–2025 yillarda texnologik yo‘qotishlar, kapital ulushi, innovatsion faoliyat va tarmoqqa ulangan va uzatilayotgan yashil energiya ulushi bo‘yicha asosiy barqarorlik ko‘rsatkichlari dinamikasi keltirilgan. Mazkur ko‘rsatkichlar korxonaning texnik, moliyaviy hamda innovatsion, yashil energetika rivojlanish yo‘nalishlarini kompleks baholash va SISI integrallashgan indeksini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

5-jadval

“O‘zbekiston MET” AJ uchun 2019–2025 yillarda texnologik yo‘qotishlar, kapital ulushi, innovatsion faoliyat va tarmoqqa ulangan va uzatilayotgan yashil energiya ulushi bo‘yicha asosiy barqarorlik ko‘rsatkichlari dinamikasi[25]

Ko‘rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Texnologik yo‘qotishlar (%)	2,72	2,67	2,62	2,54	2,41	2,26	2,14
Kapital ulushi (Kap/(Kap+Maj))	0,42	0,51	0,31	0,02	−0,15	0,39	0,30
Innovatsion ulush (nisbiy)	0,10	0,15	0,18	0,21	0,28	0,35	0,40
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (nisbiy)	0,03	0,05	0,08	0,12	0,18	0,25	0,30

5-jadval ma’lumotlari asosida har bir ko‘rsatkich yuqorida keltirilgan normalizatsiya formulalari bo‘yicha 0 dan 1 gacha bo‘lgan diapazonga keltiriladi. Shu tariqa, turli o‘lchov birliklaridagi ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash imkoniyati yaratiladi hamda ularning asosida operatsion samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va yashil energetika subindekslari hisoblab chiqiladi. 2019–

[24] Muallif ishlanmasi

[25] O ‘zbekiston MET” AJ” 2019–2025 yillar moliyaviy xisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

2025 yillar bo‘yicha ushbu subindekslarning normalizatsiyalangan qiymatlari 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval


“O‘zbekiston MET” AJ SISI integral barqarorlik indeksining 2019–2025-yillar uchun hisoblangan dinamikasi[26]

Yil	It	Ie	Ii	Iec	SISI	Daraja
2019	0,000	0,864	0,000	0,000	0,000	Juda past
2020	0,086	1,000	0,167	0,074	0,181	Juda past
2021	0,172	0,697	0,267	0,185	0,278	Past
2022	0,310	0,258	0,367	0,333	0,314	Past
2023	0,534	0,000	0,600	0,556	0,000	Juda past
2024	0,793	0,818	0,833	0,815	0,815	Yuqori
2025	1,000	0,682	1,000	1,000	0,909	Yuqori

6-jadval natijalariga ko‘ra, “O‘zbekiston MET” AJning SISI integral indeksi 2019–2025 yillarda o‘sish, inqiroz va tiklanish bosqichlarini bosib o‘tgan. 2019–2020 yillarda indeks juda past (0,000–0,181) bo‘lib, bu baza yil normalizatsiyasi bilan izohlanadi. 2019-yilda barcha ko‘rsatkichlar davr ichidagi eng past nuqtada bo‘lgani uchun It, Ii va Iec subindekslari 0,000 ga teng chiqqan.2021–2022 yillarda moliyaviy barqarorlik indeksi (Ie) keskin pasayishi (0,697→0,258) sababli SISI past darajada (0,278–0,314) qolgan. 2023-yilda esa Ie ning nolga tushishi butun indeksni ham 0,000 ga tushirgan – bu geometrik o‘rtachaning "zanjir ustuvorligi" tamoyilini tasdiqlaydi. Bloklardan birortasi butunlay yemirilsa, umumiy barqarorlik ham izdan chiqadi. 2024-yilda "O‘zenergosotish" AJga sotib olish-sotish funksiyasining o‘tkazilishi (PF-166-son Farmon) va tarif-xarajat optimallashtirilishi natijasida Ie 0,818 ga ko‘tarilib, SISI 0,815 ga yetgan. 2025-yilda operatsion samaradorlik, innovatsion rivojlanish va yashil energetika bloklari maksimal darajaga (1,000) chiqib, SISI 0,909 bilan tahlil davridagi eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon etgan.

Elektr energiyasi korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun holatni baholash bilan birga investitsiya qarorlari, texnik modernizatsiya va moliyaviy natijalarni yagona boshqaruv tizimida uyg‘unlashtirish zarur. Tadqiqotimiz natijasida 4-rasmda SISI integral indeksiga tayangan, barqaror rivojlanishni boshqarishga xizmat qiluvchi yetti bosqichli tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif qilindi.

[26] O‘zbekiston MET” AJ” 2019–2025 yillar moliyaviy xisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan .



5-rasm. Energetika sanoati korxonalarida barqaror rivojlanishning yetti bosqichli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi[27]

5-rasmda taklif etilgan yetti bosqichli tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tahlil va diagnostika, barqarorlikni miqdoriy baholash, ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, boshqaruv tavsiyalarini shakllantirish, ularni amalga oshirishni tashkil etish, natijalarni baholash hamda monitoring va qayta aloqa bosqichlarini yagona uzluksiz siklga birlashtiradi. Mexanizmning asosiy jihati SISI subindekslari orqali aniqlangan nisbatan zaif yo‘nalishlarni ularning sabablarini tahlil qilish va tegishli chora-tadbirlarni ustuvorlashtirish bilan bog‘lashdan iborat. Chora-tadbirlar amalga oshirilgandan so‘ng natijalarni boshlang‘ich ko‘rsatkichlar, subindekslar va SISI dinamikasi orqali qayta baholash hamda olingan xulosalar asosida boshqaruv tavsiyalarini yangilash nazarda tutiladi. Shu tariqa, mexanizm korxonaning barqarorlik holatini baholash natijalaridan boshqaruv qarorlarini asoslashda foydalanishga xizmat qiladi.

Korxonaning moliyaviy rivojlanish trayektoriyasini baholash uchun sof tushum 2019–2025-yillardagi moliyaviy ma’lumotlar asosida Xoltning chiziqli silliqlash modeli va zanjirli o‘sish indekslari yordamida prognoz qilindi. Qisqa vaqtli qator va biznes-modeldagi tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida ushbu modeldan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. Xoltning chiziqli tekislash modelini amaliyotda qo‘llash hamda energetika sanoati korxonasining kelgusi rivojlanish ssenariylarini modellashtirish maqsadida, subyektning 2019–2025-yillardagi rasmiy moliyaviy hisobotlari ma'lumotlaridan iborat empirik baza shakllantirildi.

[27] Muallif ishlanmasi

Modelning kirish parametrlari sifatida xizmat qiluvchi balans koʻrsatkichlari dinamikasi 1-rasmda, korxonaning operatsion faoliyati samaradorligini aks ettiruvchi daromad va xarajatlar koʻrsatkichlari esa 2-rasmda jamlangan. Korxonaning 2019–2025 yillardagi balans va moliyaviy natijalari dinamikasi (aktivlar, oʻz kapitali, majburiyatlar, sof tushum, tannarx, yalpi foyda va sof moliyaviy natija koʻrsatkichlari) yuqorida keltirilgan jadvallar asosida tahlil qilinib, Xoltning chiziqli silliqlash modeli yordamida mahsulot (xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumning uzoq muddatli trayektoriyasi optimallashtirildi. Model parametrlarini SSE (Sum of Squared Errors) mezoni boʻyicha tanlash va iterativ hisob-kitoblar natijasida retrospektiv davr boʻyicha yuqori darajadagi moslikka erishilib, energetika sanoati korxonasining 2026–2030 yillardagi barqaror rivojlanish ssenariylarini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Algoritmik jarayon natijasida tadqiqot ob'ekti uchun mutloq xususiy va eng optimal koeffitsiyentlar kombinatsiyasi aniqlandi: $\alpha^* = 0{,}99999$ va $\beta^* = 0{,}000000496$. Ushbu natija modelning xatolik koʻrsatkichini (SSE) atigi 2899030,03 ga tushirish imkonini berdi. Iqtisodiy jihatdan bu natija korxonaning 2023-yilda amalga oshirgan strategik transformatsiyasini (resurs savdosidan faqat transportirovkaga oʻtganini) model oʻz xotirasida toʻliq muhrlaganini hamda kelgusi oʻsish trendi mutloq chiziqli va barqaror ekanligini matematik isbotlab berdi.

Noaniqlik va tasodifiy tebranishlar ta'sirini minimallashtirish maqsadida, Xolt modelining tanlanmadan tashqari prognozlash ierarxiyasi zanjirli oʻsish sur'atlari ustida qurildi. Ushbu yondashuvda korxonaning joriy yildagi sof tushumi oʻtgan yilgi koʻrsatkichiga nisbatan indekslandi ($\frac{Y_t}{Y_{t-1}}$) va vaqtli qator sof oʻsish koeffitsiyentlari koʻrinishiga keltirildi.

$$\hat{I}_{2025+h} = L_{2025} + h * T_{2025}$$

9-jadval

Xoltning chiziqli tekislash modeli asosida korxona sof tushumining 2026–2030-yillarga moʻljallangan prognoz koʻrsatkichlari (soʻmda)[28]

Yillar	Aniqlangan zanjirli oʻsish koeffitsiyenti	Istiqbolli prognoz tushum hajmi	Yillik oʻsish sur'ati (foizda)
2025 (Fakt)	–	9 596 983 994	–
2026	1,04115108	**9 991 911 511**	4,115108
2027	1,04115101	**10 403 089 666**	4,115101
2028	1,04115121	**10 831 188 468**	4,115121
2029	1,04115141	**11 276 904 236**	4,115141
2030	1,04115162	**11 740 961 947**	4,115162


[28] Manba: Eksperimental oʻsish indekslari va Xolt modeli asosida muallif tomonidan hisoblangan va shakllantirilgan.

Ushbu foizli indekslar tizimida Xolt modelining kelajakka prognoz qilish tenglamasi rekurent tarzda, qadam-baqadam ($(h = 1, 2, 3, 4, 5)$) quyidagi ko‘rinishda ijro etildi:

